

Xoshimova Mohinur Baxtiyorjon qizi.

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Maqolada ijtimoiy ish kasbining nazariy va amaliy jihatlari, yoritilib berilgan. Ijtimoiy ish bu - odamlar va ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professiyonal faoliyatni qamrab oladi. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati yolg'iz keksalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga, shuningdek qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarga, ayollarga, uysizlarga, deviant hulq-atvor egalari va ruhiy kasallarga, yordamni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o'zgarishlarni, insonlar o'rtaсидagi munosabatlaridagi muammolarni hal qilishga va farovonligini oshirish uchun insonlarning, imkoniyatlarini kengaytirish va ozod qilishga yordam beradi. Insonlarning hulq-atvor va ijtimoiy tizimlar nazariyalaridan foydalangan holda, ijtimoiy ish odamlar o'zlarining atrofidagilar bilan, o'zaro aloqada bo'lgan joylarda aralashadi. Inson huquqlari va ijtimoiyadolat tamoyilari, ijtimoiy ish uchun asos hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *nazariya, amaliyat, ijtimoiylashuv, mijoz, qiyin hayotiy vaziyat, baholash, ijtimoiy ishning obekti, subekti.*

Kirish

" Ijtimoiy ish - jamiyatdagi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydigan zaruriy kasbiy faoliyatdir".

Bugungi kungacha, yurtimizda deyarli barcha jabhalarda o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar ilm - fan sohasini ham qamrab olmoqda. Yurtimizga yangi va zamonaviy kasiblar kirib kelmoqda. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati ham shunday. Lekin tarixga nazar tashlar ekanmiz, turli islohotlarda yoki xalqimizning bir - biriga turli qiyin hayotiy vaziyatlarda, ko'mak berishlarida bu kasbiy faoliyat biz uchun yangilik emasligini tushunamiz. Ijtimoiy ishning tarixi, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu soha 2004-2005 yillarda rasmiy tarzda yurtimizga kirib keldi. Ya'ni Toshkent davlat Madaniyat institutida ilk bor "Ijtimoiy ish" yo'nalishi, tashkil etildi. 2005-2006 yillarda Samarqand va Farg'ona oligohlarida ham bu yo'nalish tasis etildi. Dunyo bo'yicha esa ijtimoiy ish kasbiy faoliyat 1903 yildan boshlab o'qitila boshlandi. Asoschilari, Meri Elen Richmond (1861-1928) Alisa Salomon, Jeyn Adms kabilar hisoblanadilar. Aynan Meri Elen Richmondning bu soha bo'yicha yozgan, "Ilmiy ijtimoiy ish", "Ijtimoiy diyagnostika", kitoblari juda mashhur. Ijtimoiy ish mutaxassis turli xizmatlarni taqdim etishda, u alohida mijozlar uchun maslahat berishdan to' terapevtik xizmat ko'rsatish, oila, guruh, tashkilot va jiddiy ijtimoiy yeg'inlarda ishtirok etish va tashkillashtirish vazifalarini amalga oshirish bilan tugaydi. Ijtimoiy ishning

amaliy faoliyati, juda keng maydonni egalaganki ular turli tashkilotlar maktab, psixologik maslahat, uyda tajovuzga duch kelgan insonlar, uy-joy masalalari bo'limi, qamoqxonasi, bolalar joylashtiriladigan muassasalar bilan o'zaro hamkorlikni amalgalashadi. Bunday turli-tumanlikni tushunib olish uchun bazi vaziyatlarni ko'rib chiqish lozim. Buning tarkibiga ijtimoiy ish, uning tarixi, maqsad va vazifasi kiradi. Shuningdek, to'g'ri va umumiy amaliyotdagi faoliyat orasidagi tafovutni aniqlash va tushunish lozim. Ijtimoiy ish kasbining asosiy maqsadi, insonlarni ijtimoiy muhitida ishonchli, xavfsiz, qadir-qimmatli va o'z huquqlarini to'liq amalgalashadi. 2001-yil 27-iyunda Kopengagenda "Ijtimoiy ish maktablari" xalqaro assotsatsiyasi va "Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi" tomonidan qabul qilingan ijtimoiy ish ta'rifidan kelib chiqgan holda, ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyat jamiyatdagi o'zgarishlarga, muammolarni hal qilishga, insoniy munosabatlarga hissa qo'shamdi. Jamiyatda funksional mavjudlik qobiliyatini mustahkamlashga va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ularni qutqarishga yordam beradi. Inson hulq-atvor va ijtimoiy tizimlar nazariyalaridan foydalangan holda, ijtimoiy ish insonlarning o'z atrofidagilari bilan hamkorlik qilishga targ'ib qiladi. Bu faoliyat maqsadi, bir tomonidan mijozning ma'nifatlarini qondirish bo'sa, ikkinchi tomonidan jamiyatdagi barqarorlikni saqlashdir. Ushbu muammolarning eng maqbul yechimi bu ikki maqsad o'rtaida murosaga erishish hisoblanadi. Ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiruvchi sabablarni o'rganish davomida, ijtimoiy fanlarning konseptual vositalaridan, nazariyalaridan, texnologiyalar va terapiyalardan foydalaniлади. Bu esa faoliyatda tizimli yondashuvga olib keladi va samara beradi. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish o'rinniki, har yili Mart oyining 3-haftasi Seshanba kuni dunyo bo'yicha "Ijtimoiy ishchilar kuni" sifatida nishonlanadi.

Asosiy qism: Ijtimoiy ishning nazariy asoslari, XX asr boshlarida shakillandi. Ijtimoiy ish nazariyasi - bilimlarning ommaviy sohasidagi asosiy g'oyalari tizmi, qonuniyatlar va voqeysalikning muhim aloqalari to'g'risida yaxlit tasavvur beradigan, ilmiy bilim shakli hisoblanadi. Ijtimoiy ish nazariyalarining eng mashhurlarini M.Richmondning (ijtimoiy diyagnostika, aralashuv, mijozni tarixini saqlab qolishi) kabi nazariyalar. Yoki V.Robinsonning (mijozning holati, uning borligi, qadiriyatlari va ma'nolari, o'tgan tajribaning mazmuni to'g'risida xabardorlik) nazariyalarini eng muhimlari sanaladi.

Ijtimoiy ish nazariyalarini 4 ta asosiy, yo'nalishlarda ishlab chiqiladi.

- 1- individual ish nazariyasi;
- 2- guruhiy ish nazariyasi;
- 3- jamoat ish nazariyasi; (jamiyat,mahalla)
- 4- ma'muriyat va rejalshtirish nazariyasi;

Amaliyot, esa ijtimoiy ish nazariyasini rivojlantirish me'zoni va asosidir. Chunki : Amaliyotsiz nazariya bu - ustki tuzilmasiz, poydevor. Nazariyasiz amaliyot, poydevorsiz ustki tuzilishi. Birinchisi foydasiz. Ikkinchisi xavfli.Har bir faoliyat o'zining nazariy va

amaliy bilimlariga asoslanadi. Shu o'rinda aytish o'rinliki, ijtimoiy ish nazariyalarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish juda muhim sanaladi. Sababi ijtimoiy ish, mijozlari turli toifa insonlar, guruhlar bo'lishi mumkun. Ya'ni qiyin vaziyatga tushgan va bu noqulayliklardan chiqib ketalmayotgan bolalar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, oilalar, keksalar, deviyant hulq-atvorli shaxslar, bo'ladimi ularga amaliy yordam berish uchun ham nazariyalardan unumli foydalanish, ularni manzilliy qo'llay olish lozim. Shu o'rinda ijtimoiy ish obekti va subekti haqida ham to'xtalsak.

Ijtimoiy ish obekti bu - odamlar hayotining o'ziga xos sohalari, doimiy yordamga muhtoj bo'lganlar, qiyin vaziyatga tushib qolgan shaxslar va guruhlar hisoblanadi. Qilingan ilmiy ishlarni ko'rsatadiki, ijtimoiy ish obektlarini quydagicha ta'sniflash mumkun.

- Salomatlik holati, hayot muammolarini o'zi hal qila ololmaganlar.
- Ekstrimal ijtimoiy sharoyitlarda xizmat qiladiganlar.
- Har-xil turdag'i deviyant hulq-atvor egalari.
- Keksa odamlar, pensionerlar.
- Turli tipdag'i oilalarning og'ir noqulay ahvoli (ziddiyatli oilalar, ko'p bolaliv oilalar)

- Bolalarning alohida holati.
- Uy - joyi yo'qlar.
- Siyosiy dipressiyaga uchraganlarning hulqiy va huquqiy holati.

Ijtimoiy ish subekti bu - ijtimoiy ishlarni olib, boruvchi va boshqaruvchi insonlar va tashkilotlar.

- Tashkilot, muossasa, ijtimoiy institutlar faoliyati.
- Jamoat xayriya tashkilotlar.
- Universitetlar, ijtimoiy ish bo'yicha ilmiy xodimlar.

- Ijtimoiy ish bilan professional shug'ilanuvchilarni tashkil etadi. Inson hayoti davomida, ijtimoiy tarzda rivojlanib ijtimoiylashib boradi. Ijtimoiylashuv bu ommaviy, inson shaxsi tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga imkon beradigan ma'lum bir bilim, o'zini tutish, me'yor va qoidalarni o'zlashtirish jarayoni. Lekin ayrim insonlar, ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat bolalarda kuchli kuzatiladi. Ijtimoiy ish xodimi, qabuliga kelgan barcha, mijozning qadir-qimmatli hurmat qilishi lozim. Xodimdan eng avvalo faol tinglash, qobilyati talab etiladi. Qiyin vaziyatga tushgan yoki xavf guruhidagi mijozlarning, muammolarini tinglash orqali, ularning vaziyatlariga yechim topiladi va baholash texnologiyasini ham o'tkazish mumkin bo'ladi. Baholash mijoz bilan ishlayotgan ijtimoiy ish xodimi uchun eng avzal va zaruriy texnologiya hisoblanadi. Bu texnologiya usulida mijozga yordam berishni, manzilliy rejalashtiriladi. Baholash jarayoni tasnifi quydagicha.

1. Tayyorgarlik;
2. Ma'lumotlarni to'plash;
3. Ma'lumotlar tahlili;

4. Kuchli tomonlar va ehtiyojlarni aniqlash;
5. Harakat rejasini ishlab chiqish.

Baholashda dastlabki, qadam bu mijoz bilan o'zaro aloqaga kirishishni qamrab oladi. Ijtimoiy ish mutaxassisini mijoz bilan ishlash chog'ida, baholashni bilishi va uni amalda qo'llay olishi, qiyin vaziyatlarga tushib qolgan mijozning holatini ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam beradi. Baholashdan foydalangan holda, mijozning kelgusidagi rivojlanishini aniqlash joyiz bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni, olish imkoniyatlari vujudga keladi. Baholashdan olingan, xulosalar ijtimoiy ish xodimga mijozga qaysi texnologiyani yoki terapiyani qo'llash kerakligi, haqida xabar beradi. Ijtimoiy ish mutaxassisining asosiy vazifasi, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa metodlar va nazariyalar yordamida, me'yoriy faoliyatiga xalaqit beruvchi muammolarni aniqlashda mijozga yordam beradi. Ularning yoshi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ular bilan tizimli ishlaydi. Ijtimoiy ish nazariyalarini ko'p hollarda psixologiya bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy ish nazariyalarining ayrimlarini keltirib o'tamiz.

1. Hulq-atvor nazariyasi;
2. Kongetiv nazariyasi;
3. Ekologik tizim nazariyasi;
4. Oilaviy hayot nazariyasi;
5. Psixodinamik nazariya;
6. Imkoniyatlarni kengaytirish nazariyasi;
7. Gumanistik nazariya;
8. Obekt bilan aloqalar nazariyasi;

Yuqorida keltirilgan, nazariyalarning mohiyati mijozni hayot farovonligiga erishishda, o'z imkoniyatlarini his qila olishga yordam beradi. Ijtimoiy ish mijozlar bilan ishlash davomida, 3 ta tizimida foydalananildi. Ular

- 1- mikro (kichik) - mijozning o'zi bilan, individual ishslash;
- 2- mezo (o'rta) - guruuhlar va mijoz atrofidagilar bilan ishslash;
- 3- makro (katta) - jamiyat va ijtimoiy muossasalar bilan mijozning muommolariga yechim topishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy ish xodim uchun mijoz bilan ishlashdagi, eng qiyin holat bu individual ishslash jarayoni sanaladi. Bu guruh bilan ishlashdan qiyin kechadi. Kasb taqazosi bilan, ijtimoiy ish xodimi bir qator ro'llarni bajaradi. Misol uchun maslahatchi, tarbiyachi, tadqiqotchi, ish boshqaruvchi, mediator, advokatlikni ham bajarishi mumkin bo'ladi. Ijtimoiy ish mutaxassisini o'zining bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini alohida odamlar, guruuhlar, jamoa va jamiyatlarni taraqqiy etish uchun, shaxsiy ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraft etish uchun sarf qilish lozim. Xodim o'z ustida ishlashi, bilimlari va mahoratini mutassil oshirib borishga harakat qilib, ta'lim va tatqiqot ishlarini olib borishi kerak. Kompetentlik (chuqur bilimga egalik) ijtimoiy ish xodimi uchun zarur hisoblanadi. O'z kasbiy amaliyotida va kasbiy vazifalarini

bajarishda, mutaxassis - ekspert bo'la olishi uchun bor bilimi va kuchini ishga solishi kerak. Ijtimoiy xizmat xodimi, bajarayotgan ishining sifatiga, personal javobgarlikni o'z bo'yninga oladi. Umumiy holda ijtimoiy ish, diskriminatsiyani (kamsitish) rad etish asosiga quriladi. Demak xodim, mijozlarning jinsi, yoshi, millati, diniy e'tiqoti, tili, siyosiy yo'nalishlaridan qat'iy nazar o'z xizmat faoliyatini amalga oshiradi. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyat rivojlanishi bu jamiyatdagi ijtimoiy siyosat, muhitini ham yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa: Ijtimoiy ish kasbiy faoliyat, har tomonlama mufassal hisoblanadi. Insonlar bilan ishlash jarayonida, insoniy munosabatlarni yanada yangi ko'rinishlarini kashft etadi. Aytib o'tilganidek mijozning holati, yoshi, muammolari, o'zini tutishi turlicha bo'ladi. Eng e'tiborga loyiq jihat shundaki, mutaxassisida "kasbi kuyish" yuz berishi mumkin. Shunday vaziyatlardan xodim o'zini har tomonlama mijozining muammolaridan himoya qilish kerak. Xodim o'zini har qanday vaziyatda, qo'lga olishi lozim bo'ladi. Ijtimoiy ish kasbi insonlarning tinchligini ta'minlash maqsadida jamiyatdagi o'zgarishlarga, insoniy munosabatlar, ularning ozodligi va imkoniyatlarini kengaytirishga imkon yaratadi. Soha vakillari har bir inson va ijtimoiy guruh huquqlari, ularning mustaqilligi va sha'nini hurmat qilar ekan, BMT ning inson huquqlari xaritasidan va boshqa xalqaro hujjatlariga asoslanadi. Ijtimoiy ish kasbi faoliyati qanday asos va nazariyalarga, ega ekanligini ommalashtirish, uning ilmiy asoslarini yaratish, bu faoliyatni istiqbollarini belgilab beradi. Muxtasar qilib shuni ayta olaman, soha bo'yicha ilm qilinishi insonlar hayotini yengillashtirishi, yangi va ketakli ish o'rinalarini yaratish uchun asos vazifasini bajarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "История социальной работы в России". В.П. Мельников. Е.И. Холостова. 2005.
2. "Социальная политика". И.Холостовой. Г. И. Климантовой. 2017.
3. "Ijtimoiy siyosat" A. V. Vaxabov. Toshkent 2019.
4. "Ijtimoiy ish texnologiyalari".Qo'llanma 2001.
5. "Social Policy an Introduction - Forth edition. Ken. Blakemors Louis Warwick - Booth Open University Press / UK 2013.
6. "Ijtimoiy ish nazariyalari". Qo'llanma 2018.

Foydalilanlgan Internet saytlari:

1. <http://www.imf.org>
2. <http://www.cbu.uz>
3. <http://www.undp.uz>